

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 10 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине – педагогика фанлари доктори, доцент.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Фарманова Гулнара Комилевна*

МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР БОШИ) ..... 19-26

*Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*

МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34

*Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*

MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39

*Янгибоева Дилноза Ўқтамовна*

МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАҲДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ ..... 40-48

*Maҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРГОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53

*Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*

O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58

*Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) ..... 59-65

*Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*

МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74

*Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*

XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80

*Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*

БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### **8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Boltayev Nurali Shiramatovich*

AGRAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i>	
РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i>	
МETHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talapov Baxriddin Aljanovich</i>	
KONSTITUTSIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i>	
JAMIyat HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i>	
РАҶАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>To'xtayev Xakim Primovich</i>	
TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i>	
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i>	
GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-DUNYOVII DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i>	
МА'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	173-178
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

*Халметова Мехрибону Гайратжоновна*  
**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ  
ЯЗЫКАХ ..... 179-186**

*Abdijabbor Amanov*  
**MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI ..... 187-193**

*Umarova Xurshida Zikiryoxonovna*  
**AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI ..... 194-201**

*Odinayev Bekqul Imamqulovich*  
**LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN ..... 202-210**

*Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev*  
**"DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR" DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR  
QIYOSI ..... 211-217**

*Saidov Akmal Azimovich*  
**"TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA  
MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ..... 218-224**

## **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li*  
**SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA  
AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI ..... 225-231**

*Жўраев Дилмурот Мухторович*  
**МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН  
НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА  
ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР ..... 232-240**

*Эшонхонов Камолхон Маматхонович*  
**БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ  
КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР ..... 241-246**

*Бўриев Одил Қобилович*  
**КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ  
МЕЗОНИДИР ..... 247-253**

## **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li*  
**"ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING  
MAVJUD HOLATI ..... 254-259**

*Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола*  
**ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ  
КОММУНИКАЦИИ ..... 260-265**

---

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i>	
ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i>	
KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i>	
INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i>	
REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i>	
TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i>	
IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Qodirov Olim Odilovich**  
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti  
[olimjon.kodirov.1976@gmail.com](mailto:olimjon.kodirov.1976@gmail.com)

### **REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish tizimini rivojlantirish va zamonaviy metodik texnologiyalarni joriy etishga doirasidagi refleksiv yondashuvning tarkibiy qismlari, uning ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtirishga yordab berishi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Refleksiv ta'lif, refleksiv yondashuv, ta'lif tizimi, mexanizm, bilish, o'z-o'zini nazorat qilish, kasbiy mahorat, reja, tayyorgarlik, natija, motivlar.

---

**Kadirov Olim Odilovich**  
doctoral student of the Andijan State Institute  
of Foreign Languages

### **REFLECTIVE APPROACH, ITS ESSENCE AND CONCEPTUAL BASIS**

**Abstract.** In this article, the components of the reflexive approach within the framework of the development of the system of teaching foreign languages, especially English, and the introduction of modern methodological technologies, its contribution to the coordination of the attitude of the participants of the educational process to their activities, and the form and content of collaborative activities, and reorganization of this activity are discussed.

**Key words:** Reflective education, reflective approach, educational system, mechanism, knowledge, self-control, professional skills, plan, preparation, result, motives.

---

**Кадыров Олим Одилович**  
докторант Андижанского государственного института  
иностранных языков

### **РЕФЛЕКСИВНЫЙ ПОДХОД, ЕГО СУЩНОСТЬ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются компоненты рефлексивного подхода в рамках развития системы обучения иностранным языкам, особенно английскому, и внедрения современных методических технологий, его вклад в координацию мироощущения участников воспитательного процесса к своей деятельности, форма и содержание совместной деятельности, и реорганизации этой деятельности.

**Ключевые слова:** Рефлексивное обучение, рефлексивный подход, образовательная система, механизм, знания, самоконтроль, профессиональные умения, план, подготовка, результат, мотивы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N46>

**Kirish.** Bugungi kunda butun jahonda pedagogik amaliyotda o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatiga refleksiv yondashuvini rivojlantirish orqali ularning bilim berish imkoniyatlarini kuchaytirish, malakalarini tizimli va uzlusiz olib borish. Xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rghanish o'ta dolzarb bo'lib borayotgan zamonaviy dunyoda o'quvchilarda xorijiy tillarga qiziqishni rivojlantirishning innovatsion tizimini refleksiyaga asoslangan yondashuvlar asosida joriy etish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Dunyoda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish tizimini rivojlantirish va zamonaviy metodik texnologiyalarni joriy etishga doir qator ishlar amalgamoshirilib, refleksiv yondashuvning zamonaviy komponentlarini to'liq qamrab oladigan tizimli tadqiqot olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Shu jihatdan o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodik texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, o'qituvchilarning o'z kasbiy mahoratlarini tizimli oshirib borish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy adabiyotlar yaratish va ulardan dars jarayonini tashkil qilish ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunga qadar refleksiv yondashuvga qaratilgan bir qator diqqatga sazovor ishlar dunyo yuzini ko'rgan. Ularda asosan o'quvchining refleksiv ta'lim olishi borasida fikr yuritiladi. Biz esa urg'uni o'qituvchi faoliyatida refleksiyasining namoyon bo'lishi va o'quv-tarbiya jarayonini refleksiv yondashuv asosida tashkil etishga qaratamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Respublikamizda ingliz tilini o'qitish tizimida o'qituvchining o'z ishini sifat jihatidan yaxshilash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy qo'llanmalar, elektron qo'llanmalar, test yoki nazorat qiluvchi dasturlar, elektron kutubxona, o'quv-me'yoriy hujjatlar, kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishga mo'ljallangan dasturiy vositalar, multimediali elektron darsliklar, elektron o'rgatuvchi kurslar, masofali ta'limga mo'ljallangan portallarni tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu esa, til o'qitish borasida ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish, o'qituvchilarning o'z malakalarini uzlusiz oshirib borish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

**Tahlillar va natijalar.** Refleksiya (lot. reflexio – ortga qaytish, aks etish). 1) kishining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati, bilishning alohida bir shakli; 2) fikrlash, o'z-ozini nazorat qilish; 3) o'zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun-qoidalarini fikrlashga yo'naltirilgan faoliyatining nazariy shakli; 4) o'z ruhiy holati haqida o'ylash, xayol surish, fikr yuritish, uni tahlil etishga moyillikni anglatadi[1].

Refleksiya – bu ko'p jihatdan inson hayotining ontologik tomonini ifodalaydi va insonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi [2: 46-54 б]

Refleksiya inson subyektivligining eng muhim, markaziy hodisasi bo'lib, buning uchun quyidagi ta'rifni keltirish mumkin: "... bu insonning o'ziga xos qobiliyati, u shaxsga o'z fikrlarini tahlil qilish va mustaqil bildirishiga imkon beradi, shuningdek, hissiy holatlar, kechinmalar, odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini aks ettiradi, umuman olganda — alohida

e'tibor (tahlil va baholash) va amaliy o'zgarish (o'zgarish va rivojlanish)ga imkon beradi [3:382 b ].

Pedagogik adabiyotlarda refleksiv jarayonlarni izohlashning ikki turi ajratib ko'rsatiladi:

– kognitiv va hissiy kechinmalar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning refleksiv tahlili;

– insonning o'z-o'zini va shaxslararo muloqot mazmunini tushunish refleksiysi.

Refleksiya o'zini-o'zi anglashning tasvirlanishi, muloqot jarayonida subyektning suhbatdosh sifatida qanday qabul qilinayotganligini anglashi, subyektning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyati.

Ta'lism jarayonida ba'zi hollarda o'qituvchi o'z darsidan va o'quvchilaridan kutayotgan natija aslida erishilgan natijadan farq qilib qolishini kuzatish mumkin. O'qituvchi dars jarayonida ko'plab muammolarga duch keladi. Misol uchun, u darsini juda yaxshi rejalashtirib, puxta tayyorgarlik ko'rsa-da, amaldagi natija kutilganiday bo'lmay qolishi, o'quv rejasida tavsiya etilgan metodika mazkur dars jarayoniga to'g'ri kelmay qolishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchi darsdan so'ng dars jarayonida bo'lib o'tgan hodisalar va mavjud bo'lgan holatlar haqida o'ylashi, dars jarayonini qayta tahlil qilishi, xatolik va kamchiliklarni topishi, dars haqida hamkasblarining fikrini o'rganishi yoki o'quvchilarning fikr-mulohazalarini to'g'ridan-to'g'ri so'rab bilishi mumkin. Ana shunday jarayonlarni boshidan o'tkazadigan o'qituvchini biz ta'lism jarayoniga refleksiv yondashadigan o'qituvchi deb atashimiz mumkin.

Refleksiya orqali ta'lism-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta'minlanadi [3: 46-54-b]

G.S.Suxobskaya va L.L.Gorbunovalar tomonidan "refleksiya o'zini o'zi anglashning tasvirlanishi, muloqot jarayonida subyektning suhbatdosh sifatida qanday qabul qilinayotganini anglashi, subyektning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyati" [4:24-b] sifatida aks ettiriladi.

B.Z.Vulfov "kasbiy refleksiya – bu o'z-o'zini, "men" imkoniyatlarini o'z "men"i bilan bog'lash" [5], deb hisoblaydi. Tanlangan kasb nimani talab qiladi, u haqida mavjud g'oyalar bilan kasbiy o'zini o'zi belgilash, degan xulosaga keladi.

V.I.Slobodchikov va Ye.I.Isaev "pedagogik refleksiya o'qituvchining o'zini va o'z xatti-harakatlarini obyektiv baholashi, o'quvchilar va boshqalar tomonidan o'zini qanday qabul qilinayotganini, eng avvalo, u muloqot jarayonida kimlar bilan o'zaro ta'sirda ekanligini tushunish qobiliyati" [6] sifatida talqin etadilar.

Respublikamiz olimlarini E.Seytxalilov, M.Quronov, I.Majidovlarning fikricha, refleksiya samarali fikrlashning muhim shakli, yuz berayotgan hodisani keng tizimda tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish, vazifalarni hal qilishga jalgan shaxs hamda boshqa odamlarning o'zini o'zi tahlil qilishi, o'z holati hamda harakatlarini faol o'ylab ko'rishdan iborat jarayondir. Shu sababdan refleksiya (orqaga qaytish) ham ichidan (bir insonning kechinmalari va o'ziga o'zi hisob berishi, tahlil qilishi), ham tashqaridan (jamoa bo'lib fikrlash faoliyati va birgalikda yechim izlash) bo'lishi mumkin.

Refleksiya orqali ta'lism-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta'minlanadi. Bu bilan bog'liq ravishda quyidagi refleksiv jarayonlar ajratib ko'rsatiladi:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Odatda, refleksiv ko'nikmalar fikrlash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini tushunish uchun yo'naltirilgan faoliyat shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, refleksiv ko'nikmalar sog'lom tafakkurni rivojlantirishning asosiy indikatori sifatida belgilanadi.

Bugungi ta'lim amaliyoti uchun refleksiv o'qituvchi bo'lish juda muhimdir. Buning uchun esa u o'z dars jarayonida amalga oshirgan harakatlarini qayd qilib bora olishi katta amaliy ahamiyatga ega. Zero, "o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish"[7] bugungi istiqbolli natijalarni kutayotgan "Yangi O'zbekiston" ta'lim muhiti uchun zarurat sanaladi.

Xorij olimi Bailey o'qitishga "refleksiv yondashuvni o'z qilayotgan ishlari va qarashlari hamda motivlarining mohiyatini anglab yetishga intilayotgan va o'z faoliyatini takomillashtirishga harakat qilayotgan mutaxassislarining amalga oshirayotgan ishlariiga aniq baho berish g'oyasidir", deb ta'rif beradi[8:23-37-b]. Uning fikriga ko'ra, ta'lim jarayoniga refleksiv yondashuvni bir nechta shakllarda olib borish mumkin, jumladan, dars ishlanmalarida notatsiya (qayd) qilib borish va saqlab qo'yish, dars jarayonini video yoki audio shaklida yozib borish, o'qituvchi journalini tutish, o'qituvchilik faoliyati haqida internetda blog yuritish va boshqalar. "Professional o'qituvchi uchun darsda bajarilayotgan mashq (topshiriq) o'quvchilarni jalb qilib olish nuqtai-nazaridan qanchalik samarali ekanini baxolab borishga harakat qilish juda muhim masaladir"[9].

Dars davomida sodir bo'ladigan voqeа-hodisalar va maqsadlarga erishishning alternativ usullari haqida tanqidiy mulohaza yuritadigan o'qituvchi refleksiv o'qituvchidir.[10]

Shuningdek, Farrel[11:83-94-b] "o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida refleksiv amaliyotdan foydalanish ularning o'z faoliyatlariga ongli va muntazam ravishda refleksiv munosabatda bo'lish orqali rivojlantirishga erishish mumkin", degan xulosani bayon etadi.

Ma'lumki voqelik va uning insonlar ongidagi inikosi har doim ham bir xil bo'lavermaydi, o'qituvchilar amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar va aslida sodir bo'ladigan holatlar ko'pincha bir-biriga mos tushmay qoladi. Farrel yana shuni qo'shimcha qiladiki, o'qituvchilar o'z tajribalari va boshqa o'qituvchilar tajribalari haqida ma'lumotlarni to'plashning ko'plab usullaridan foydalanishi mumkin. So'rovnama va savol javoblar o'tkazish, hamkasblari yordamida yoki ularsiz dars tahlillari o'tkazish, o'qituvchilar jamoasida muhokamalar o'tkazish, axborot texnologiyalaridan foydalanish (bloglar, forumlar, suhbatlar) ana shular jumlasidandir.

Suherdining ta'kidlashicha, "professional o'qituvchi bo'lishning usullaridan biri bu refleksiv malakalarni shakllantirishdir"[12]. U refleksiv mahoratni rivojlantirishda o'qituvchi o'tadigan darsi jarayonidagi o'zining kuchli va nisbatan zaif tomonlarini tashxis qilishini ham e'tirof etadi.

A.Soisangwarn va S.Wongwanichlar ham "o'z faoliyatini doimiy kuzatib tahlil qilib boradigan o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini sifat jihatidan yaxshilab professional o'sishga erishadilar"[13], deb ta'kidlab o'tadi.

Aynan refleksiv ta'lim berish o'qituvchilarning professional malakalarini oshirishning usullaridan biridir. Shu sababdan o'qituvchilar o'z faoliyatları va darsni amalga oshirish

jarayonida refleksiv yondashishi talab qilinadi, chunki refleksiv ta'limning o'qituvchi va o'quvchilar uchun bir qator afzalliklari mavjud (1.1.1-rasmga qarang).

### Refleksiv ta'limning o'qituvchi uchun afzalliklari

- kasbiy o'sish;
- innovatsiyalarni tatbiq etish;
- o'qitishni osonlashtirish;
- ustoz va shogird munosabatlari;
- dars jarayonini jonlantirish;
- muammolarni hal etishga erishish;
- demokratik muhit.

### Refleksiv ta'limning o'quvchi uchun afzalliklari

- o'quvchilar faoliyatini yaxshilash;
- sinfdagi faollikni oshirish;
- tanqidiy fikrlash va qobiliyatlarni rivojlantirish;
- motivatsiyasini kuchaytirish;
- samarali va jozibador o'quv guruhi.

#### **1.1.1-rasm. Refleksiv ta'limning o'qituvchi va o'quvchi uchun afzalliklari.**

Refleksiv ta'lim *kasbiy o'sishni* ta'minlaydigan muhit sanaladi. Bunda keng ichki fikrlash jarayoni amalga oshadi, u orqali kuchli hamda zaif tomonlarni yaxshiroq tushunish imkonи yuzaga keladi. O'qituvchi maqsadlar va natijalarni qayd etish orqali o'qitish tartibini, o'qitish usullarini o'zgartirishi va sinf jamoasi bilan ishlashda strategik ma'lumotlardan foydalanishni yo'lga qo'yadi.

**Xulosalar.** Ta'lim jarayoniga refleksiv yondashuv har bir o'qituvchidan tinimsiz harakatlarni: o'zgarishlarni amalga oshirish uchun harakat, turli vaziyatlarni to'laqonli tushunishga harakat va eng asosiysi doimiy professional rivojlanishga bo'lgan harakatni talab qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'z oldilariga uzoq muddatli kasbiy maqsadlarni qo'yishlari talab etiladi, agar ular shu kasblarida salmoqli natijalarga erishmoqchi bo'lsalar, vaqt o'tishi bilan tobora murakkab vazifalar va majburiyatlarni bajarib borishlari ahamiyatlidir. Shuningdek, yaxshi ta'lim jarayonini yo'lga qo'yishda bir qator vazifalarni amalga oshirish mumkin, lekin ta'lim jarayonida maqsadni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishning eng birinchi omili o'qituvchi va uning samarali faoliyati hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 йил 11-майдаги "2022- 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"ги PF-134-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son. <https://lex.uz/docs/-6008663>
2. Верзунова Л.В. Рефлексивное управление учебной деятельностью студентов вуза // Гаудеамус, № 1 (3), 2003. – С. 43-51.
3. Вульфов, Б.З., Харькин, В.Н. Педагогика рефлексии [Текст]. – М., 1995.
4. Мануйлов Г.В. Особенности эмпатии и рефлексии личности на разных этапах освоения деятельности. автореф. дисс. канд. псих. наук: – Екатеринбург, 2020. – 24 с.
5. Морозюк С.Н. Саногенная рефлексия как фактор оптимизации акцентуаций характера и повышения эффективности учебной деятельности: диссертация...д.п.н.к: - Москва, 2001. - 382 с. [http://elibrary.ru/item.asp?id=1598\\_7669](http://elibrary.ru/item.asp?id=1598_7669).

6. Слободчиков, В.И., Исаев, Е.И. Психология человека. Введение в психологию субъективности [Текст]. – М., 1995.
7. Ismoilova M.K. Refleksiv yondashuv asosida talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning empirik tahlili // Zamonaviy ta'lim. – T.: – B. 46-54.
8. Bailey, Kathleen M. (2012). Reflective Pedagogy. In Anne Burns & Jack C. Richards (Eds.), The Cambridge Guide to Pedagogy and Practice in Second Language Teaching, (pp. 23-37). New York: Cambridge University Press.
9. Harmer, Jeremy. (2007). How to teach English. China: Pearson Education Limited
10. Soisangwarn, A. & Wongwanich S. (2014). Promoting Reflective Teaching through Peer Coaching to Improve Teaching Skills. Procedia — Social and Behavioral Sciences, 116, 2504–2511.
11. Farrel, Thomas S. C. (2016). Does Writing Promote Reflective Practice?. In Willy A. Renandya & Handoyo P. Widodo (Eds.), English Language Teaching Today: Linkin Theory and Practice (pp. 83–94). Switzerland: Springer.
12. Suherdi, Didi. (2013). Buku Pedoman Penyelenggaraan Pendidikan Profesi Guru Bahasa Inggris: Buku Ajar Pemantapan Kompetensi Akademik. Bandung: Celtic Press.
13. Soisangwarn, A. & Wongwanich S. (2014). Promoting Reflective Teaching through Peer Coaching to Improve Teaching Skills. Procedia — Social and Behavioral Sciences, 116, 2504–2511.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 10 (3) – 2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).